

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI  
AKADEMIYASI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.31/30.12.2019.Yu.25.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI  
AKADEMIYASI**

**USMANALIYEV NAJMIDDIN QO‘SHBOQ O‘G‘LI**

**ISHNI SUDGA QADAR YURITISH BOSQICHIDA PROTSESSUAL  
MUDDATLARNI TAKOMILLASHTIRISH**

**12.00.09 – Jinoyat protsessi. Kriminalistika, tezkor-qidiruv huquq  
va sud ekspertizasi**

**Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)**

**Contents of the abstract of the dissertation of the doctor of philosophy (PhD)**

**Usmanaliyev Najmiddin Qo‘shboq o‘g‘li**

Ishni sudga qadar yuritish bosqichida protsessual muddatlarni takomillashtirish..... 3

**Усманилиев Нажмиддин Кушбок угли**

Совершенствование процессуальных сроков на стадии досудебного производства.....25

**Usmanaliyev Najmiddin Kushbok ugli**

Improving procedural timeframes in the pre-trial stage of proceedings..... 49

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ

List of published works.....53

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI  
AKADEMIYASI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.31/30.12.2019.YU.25.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI  
AKADEMIYASI**

**USMANALIYEV NAJMIDDIN QO‘SHBOQ O‘G‘LI**

**ISHNI SUDGA QADAR YURITISH BOSQICHIDA PROTSESSUAL  
MUDDATLARNI TAKOMILLASHTIRISH**

**12.00.09 – Jinoyat protsessi. Kriminalistika,  
tezkor-qidiruv huquq va sud ekspertizasi**

**Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.3.PhD/Yu1194 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (<https://akadmvd.uz>) va “Ziyonet” Axborot-ta’lim tarmog‘i portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Murodov Baxtiyorjon Baxodirovich**  
yuridik fanlar doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Rajabova Mavjuda Abdullayevna**  
yuridik fanlar doktori, professor

**Botayev Murod Djumanshikovich**  
yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Malaka oshirish instituti**

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.31/30.12.2019.Yu.25.02 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil 14-noyabr kuni soat 14:30 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100197, Toshkent sh., Intizor ko‘chasi, 68. Tel./faks: (+99871) 265-22-52; e-mail: [info@akadmvd.uz](mailto:info@akadmvd.uz)).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1647 - raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100197, Toshkent sh., Intizor ko‘chasi, 68. Tel.: (71) 265-22-52.

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil 1-noyabr kuni tarqatildi.

(2025 yil 1-noyabrdagi kunidagi 29-raqamli reestr bayonnomasi).

**A.S. Tursunov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,  
yuridik fanlar doktori, professor

**A.D. Xusanov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy  
kotibi, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori  
(PhD), dotsent

**Sh.A. Kulmatov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, yuridik fanlar  
doktori, professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Dunyoda qonuniylik va huquq-tartibotni ta'minlash, fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini samarali himoya qilish barcha demokratik huquqiy davlatlarning asosiy maqsadlaridan biri sanaladi. Bu borada odil-sudlov tizimining samaradorligini oshirish, protsessual chiqimlarni kamaytirish va protsess ishtirokchilariga qo'shimcha qulayliklar yaratilishida protsessual muddatlar institutini optimallashtirish, jinoyat ishlarini yuritish tartibini bosqichma-bosqich raqamlashtirish hamda ularni oqilona muddatlarda ko'rib chiqilishini ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Mavjud statistik ma'lumotlar tahliliga ko'ra, jinoyatchilik ko'rsatkichlari yuqori bo'lgan mamlakatlarda jinoyat ishlarini tergov qilish muddati o'rtacha 6-7 oyni, sud muhokamasi esa 8-9 oyni tashkil qilmoqda<sup>1</sup>. Jinoyat ishlarini qisqa muddatlarda ko'rib chiqilmasligi sudning hukmi bilan aybdor deb topilmagan shaxslarga nisbatan ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq ehtiyot choralarining asossiz qo'llanilishiga, mavjud dalillarning yo'qolishiga, protsess ishtirokchilari tomonidan berilgan ko'rsatuvlarning o'zgartirilishiga, guvoh, jabrlanuvchi va boshqa protsess ishtirokchilarining sarson bo'lib, ularning odil sudlovga bo'lgan ishonchini pasayishiga, eng muhimi, jinoyat ishi bo'yicha qonuniy, asosli va adolatli qaror chiqarilishiga to'sqinlik qilishiga sabab bo'lmoqda.

Jahonda jinoyat-protsessual muddatlar institutini optimallashtirish yuzasidan qator tadqiqotlar olib borilmoqda. Xususan, jinoyat-protsessual huquq nazariyasida protsessual muddatlarni tasniflash mezonlarini ishlab chiqish va "oqilona muddat" nazariyasini tatbiq etishda yagona konsepsiya mavjud emasligi, protsessual muddatlar o'rtasida kollizion holatlar hamda ayrim protsessual munosabatlarda huquqiy bo'shliqlarning mavjudligi ilmiy tadqiqotlarning dolzarb obyektiga aylangan. Shuningdek, jinoyat ishlarini tergov qilish muddatlarini cheklanmagan tarzda uzaytirish imkoniyati, tergov organlarining ish hajmi va jinoyatning murakkablik darajasi kabi omillarni qonunchilikda yetarli darajada inobatga olinmaganligi milliy qonunchilikni xalqaro standartlarga moslashtirishga alohida e'tibor qaratish zaruratini taqozo etmoqda.

"O'zbekiston — 2030" strategiyasiga ko'ra qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimidagi islohotlar doirasida huquqni muhofaza qiluvchi organlarning faoliyatini inson manfaatlari, qadr-qimmati va huquqlarini himoya qilishga yo'naltirish<sup>2</sup>, yurituvdagi barcha tergovga qadar tekshiruv va jinoyat ishi materiallari bo'yicha elektron hujjat almashinuvini yo'lga qo'yish, fuqarolar tomonidan berilgan murojaatlarni tezkorlikda ko'rib chiqish, sudlar hamda tergov organlari faoliyatida ayrim protsessual harakatlarni masofadan turib amalga oshirish imkoniyatlarini kamida ikki barobarga oshirish, dalillarni to'plash va mustahkamlash faoliyatini zamonaviy texnologiyalar va so'nggi ilmiy yutuqlarni joriy qilish orqali to'liq raqamlashtirish, shuningdek jinoyat ishlarini qisqa muddatlarda sudga yuborilishini ta'minlash hamda jinoyat-protsessual muddatlarni optimallashtirish va qonun normalarini takomillashtirishni talab etadi.

---

<sup>1</sup> [www.unodc.org/unodc/en/data-and-analysis/statistics.html](http://www.unodc.org/unodc/en/data-and-analysis/statistics.html) (murojaat qilingan sana 25.08.2025-y).

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-son Farmoni.// - URL:<https://lex.uz/ru/docs/-6600413>.

Xususan, so‘nggi yillarda jinoyatga oid ariza, xabar va boshqa ma’lumotlarning qariyb 2,3 barobarga ko‘payganligi jinoyat ishini yuritishga mas’ul bo‘lgan mansabdor shaxslarning ish yuklamasini keskin oshishiga, ularning faoliyat samaradorligini pasayishiga, tergovga qadar tekshiruv va tergov muddatlarining cho‘zilishiga, eng muhimi fuqarolarning tezkor va odil sudlovga bo‘lgan konstitutsiyaviy huquqlarini o‘z vaqtida ta’minlanishiga to‘sqinlik qilmoqda. Bu esa, protsessual muddatlarni hisoblash mezonlarini optimallashtirish hamda ularga rioya etilishini ta’minlashda zamonaviy axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan samarali foydalanish, ishni sudga qadar yuritish bosqichida iltimosnomalarni ko‘rib chiqishning aniq muddatlarini belgilash, tergovga qadar tekshiruv va tergov qilish muddatlarini uzaytirish asoslari va protsessual tartibini takomillashtirish, shuningdek shaxsga nisbatan yangi ayblov yoxud javobgarlikka tortilmagan shaxs tomonidan jinoyat sodir etilganligini ko‘rsatuvchi holatlar yuzasidan sudlar tomonidan chiqarilgan ajrimlar bo‘yicha ishlarni ko‘rib chiqishning aniq muddatlarini belgilash zarurati ushbu mavzuda ilmiy-tadqiqot ishlarini o‘tkazishni taqozo etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-4850-son (2016), “Sud-tergov faoliyatida fuqarolarning huquq va erkinliklari kafolatlarini kuchaytirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5268-son (2017), “Sud-tergov faoliyatida shaxsning huquq va erkinliklarini himoya qilish kafolatlarini yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6041-son (2020), “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son (2022), “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-son (2023), “O‘zbekiston Respublikasida giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanmasiga chek qo‘yish orqali ularning aholi salomatligi va mamlakatimiz genofondiga salbiy ta’sirini bartaraf etish strategik chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-73-son (2024) Farmonlari, “Sud hokimiyati organlari faoliyatini raqamlashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-4818-son (2020) Qarori hamda sohaga doir boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot Respublikada fan va texnologiyalar rivojlanishining I.“Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Jinoyat-protsessual muddatlarning ayrim jihatlari mamlakatimiz olimlari G‘.A. Abdumajidov, D.B.Bazarova, M.D. Botayev, Z.F. Inog‘omjonova, M.X. Kadirova, Sh.A.Kulmatov, D.M. Mirazov, B.B. Murodov, F.M. Muxitdinov, M.A. Rajabova, S.M. Raxmonova, B.N.Rashidov, B.A. Saidov, A.A. Sultonov, A.O. Sharofutdinov, G.Z.To‘laganova, U.A. Tuxtasheva, N.I. Xayriyevlar tomonidan o‘rganilgan.

MDXga a‘zo davlatlar olimlaridan A.N. Axpanov, Y.V. Bogoslovskaya, Z.G. Kaziyeu, I.V. Malofeev, A.V. Mordvinov, I.V. Mokogon, A.I. Neryaxin,

S.B. Nekenova, Y.S. Po‘latov, B.G. Petrova, I.D. Simonov, I.V. Stukonog, O.I. Sokolova, B.X. Toleubekova, L.G. Tatyana, A.Y. Ushakov, U.V. Vyacheslav, K.Y. Xatmulin va boshqalarning ilmiy ishlarida o‘rganilgan.

Yurtimizda M.X.Kadirova tomonidan 2011-yilda “Jinoyat-protsessual muddatlarni takomillashtirish: zaruriyat va imkoniyatlar” mavzusida nomzodlik, 2023-yilda “Raqamlashtirish orqali jinoyat-protsessual muddatlarni takomillashtirish muammolari” mavzusida doktorlik dissertatsiyalari himoya qilingan. M.X.Kadirova va yuqorida qayd etilgan boshqa olimlarning tadqiqotlarida asosan protsessual muddatlar bilan bog‘liq tushunchalarga ta’riflar ishlab chiqish, protsessual muddatlarning jinoyat protsessi maqsadlariga erishishdagi o‘rnini aniqlash hamda jinoyat ishlarini ko‘rib chiqish muddatlarini axborot texnologiyalarining imkoniyatlaridan samarali foydalangan holda qisqartirish masalalariga e’tibor qaratilgan. Shu bilan birga, bugungi kunga qadar jinoyat-protsessual munosabatlarda muddatlarni optimallashtirish yo‘li bilan odil sudlov tizimining samaradorligini oshirish, protsessual chiqimlarni kamaytirish va protsess ishtirokchilariga qo‘shimcha qulayliklar yaratish, “oqilona muddat”larni qo‘llash mezonlarini ishlab chiqish, mavjud protsessual muddatlarning mutanosibligini ta’minlash, ishni sudga qadar yuritish bosqichida iltimosnomalarni ko‘rib chiqishning aniq muddatlarini belgilash, protsessual muddatlarga rioya etilishini ta’minlashda rag‘batlantiruvchi normalardan samarali foydalanish bilan bog‘liq masalalarga alohida maxsus tadqiq etilmagan.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “O‘zbekiston Respublikasi sud-huquq tizimida islohotlarni amalga oshirish asosida qonunchilik normalarini takomillashtirish” (2022-2026) mavzusidagi ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** ishni sudga qadar yuritish bosqichida protsessual muddatlarning huquqiy tabiatini, mohiyatini va ahamiyatini ilmiy-nazariy jihatdan o‘rganish, ularni tartibga soluvchi qonunchilik normalarini tahlil qilish hamda bu boradagi mavjud muammolarni aniqlash orqali protsessual muddatlarni takomillashtirishga oid ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

**Tadqiqotning vazifalari:**

ishni sudga qadar yuritish bosqichida protsessual muddat tushunchasi, tasnifi va jinoyat-protsessual huquqda tutgan o‘rnini tadqiq etish;

ishni sudga qadar yuritish bosqichida protsessual muddatlarning retrospektiv tahlilini amalga oshirish;

ishni sudga qadar yuritishda “oqilona” muddat tushunchasi va ahamiyatini o‘rganish;

protsessual muddatlarda o‘lchov mezonlari va tergovga qadar tekshiruvni olib borishda qo‘llaniladigan protsessual muddatlarning o‘ziga xos xususiyatlarini tadqiq etish;

surishtiruv va dastlabki tergovni olib borishda qo‘llaniladigan protsessual muddatlar bilan bog‘liq muammolarni aniqlash;

ishni sudga qadar yuritishga doir protsessual muddatlar bo‘yicha xorij tajribasini qiyosiy-huquqiy tahlil qilish;

ishni sudga qadar yuritishda protsessual muddatlarni takomillashtirish bo'yicha asoslantirilgan taklif va tavsiyalarni ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida ishni sudga qadar yuritish bosqichida protsessual muddatlarni belgilash, qo'llash va ularga rioya etish bilan bog'liq ijtimoiy-huquqiy munosabatlar olingan.

**Tadqiqotning predmetini** O'zbekiston Respublikasi jinoyat-protsessual qonunchiligi normalari, tergov va sud amaliyoti materiallari, xorijiy mamlakatlar qonunchiligi hamda yuridik fanda mavjud konseptual yondashuvlar va ilmiy-nazariy qarashlar, shuningdek statistik ma'lumotlar tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqotda bilishning analiz, sintez, induksiya, deduksiya, tarixiylik, mantiqiylik, qiyosiy-huquqiy, tizimli tahlil, anketa so'rovi, empirik material va statistik ma'lumotlar tahlili, kuzatish, tergovga qadar tekshiruv va jinoyat ishi materiallari hamda sud hukmlarini tahliliy o'rganish usullaridan keng foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

ishni sudga qadar yuritish bosqichida ushlab turish protsessual majburlov chorasining qo'llash muddati shaxs amalda ushlanganidan, ya'ni uning erkin harakatlanishga bo'lgan huquqlari haqiqiy cheklangan paytdan boshlab hisoblanishi lozimligi asoslantirilgan;

ishni sudga qadar yuritish bosqichida ushlab turish muddati tugamagan bo'lsa-da, sud tomonidan qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash rad qilinib, uy qamog'i yoki garov tarzidagi ehtiyot chorasini tanlash to'g'risida ajrim qabul qilinganida gumon qilinuvchi (ayblanuvchi) sud zalidan darhol ozod qilinishi lozimligi asoslantirilgan;

shaxs ushlanganligi yoki unga nisbatan qamoqqa olish, uy qamog'i yoki ekspertiza o'tkazish uchun shaxsni tibbiy muassasaga joylashtirish tarzidagi protsessual majburlov chorasi qo'llanilganligi to'g'risida uning yaqin qarindoshlariga qisqa muddatlarda xabar berilishini ta'minlash maqsadida, shaxsga nisbatan qo'llanilgan protsessual majburlov chorasi va u saqlab turilgan joy haqida darhol uning oila a'zolaridan biriga, ular bo'lmagan taqdirda qarindoshlariga yoki yaqin kishilariga xabar berilishi, shuningdek bu haqda ish yoki o'qish joyiga ma'lum qilinishi shartligi asoslantirilgan;

ishni sudga qadar yuritish bosqichida protsess ishtirokchilarining iltimosnomalarini ko'rib chiqishning aniq muddatlarini belgilash, hamda dalilni maqbul emas deb topish to'g'risidagi iltimosnoma davlat va jamoat ayblovchilari, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi, uning himoyachisi, jamoat himoyachisi yoki qonuniy vakili, shuningdek, jabrlanuvchi, fuqaroviy da'vogar, fuqaroviy javobgar, ularning vakillari tomonidan ishni sudga qadar yuritishning har qanday bosqichida, dastlabki eshituv va sud majlisida arz qilinishi mumkinligi asoslantirilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

"O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining qonuni loyihasi ishlab chiqilgan;

“protsessual muddat” va “oqilona muddat” kabi tushunchalarga mualliflik ta’riflari ishlab chiqilib, ularning mazmun-mohiyati va jinoyat protsessida tutgan o’rni ilmiy-nazariy asoslantirilgan;

jinoyat-protsessual munosabatlarda “oqilona muddat” institutini tatbiq etish lozim degan xulosaga kelinib, oqilona muddatlarni belgilashda tergov qilinayotgan jinoyat(lar)ning ijtimoiy xavflilik darajasi, isbotlanishi lozim bo’lgan holatlarning doirasi, ishning murakkabligi, amalga oshirilishi zarur bo’lgan tergov va boshqa protsessual harakatlar hajmi, tergov va sud organlarining ish yuklamasi, tegishli hududdagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat hamda qonunda nazarda tutilgan boshqa mezonlarga tayanish lozimligi asoslantirilgan;

jinoyat-protsessual muddatlarni hisoblashda soat, sutka va oylar bilan bir qatorda “kun” va “yil” kabi vaqt o’lchovlaridan ham foydalanish lozimligi asoslantirilib, ularni hisoblash mezonlari ishlab chiqilgan;

jinoyat ishlarini tergov qilish muddatlarini sun’iy ravishda uzaytirish amaliyotiga barham berish maqsadida shaxsga nisbatan yangi ayblov yoxud javobgarlikka tortilmagan shaxs tomonidan jinoyat sodir etilganligini ko’rsatuvchi holatlar yuzasidan sudlar tomonidan chiqarilgan ajrimlar bo’yicha, shuningdek to’xtatilgan yoki tugatilgan ish qayta tiklangan holatlar yuzasidan o’tkaziladigan qo’shimcha tergovning aniq muddatlarini belgilashning qat’iy mezonlari ishlab chiqilgan;

tergovga qadar tekshiruv bosqichida protsessual muddatlarning asossiz o’tkazib yuborilishining oldini olish maqsadida ish materiallarini birlashtirish, ajratish va ularni yurituvda bo’lgan jinoyat ishlariga qo’shish asoslari va protsessual tartibi ishlab chiqilgan;

tergov qilinayotgan jinoyat ishi doirasida protsess ishtirokchilaridan kelib tushgan murojaatlarni qisqa muddatlarda ko’rib chiqish hamda o’rnatilgan tartibda ularga javob berishning protsessual tartibi ishlab chiqilgan;

prokurorning roziligi (sanksiyasi) va sudning ruxsati talab etiladigan ayrim tergov va protsessual harakatlarni o’tkazish bo’yicha tegishli hujjatlarni yuborish va o’rnatilgan tartibda ular bo’yicha ruxsat olish jarayonini yanada optimallashtirish maqsadida axborot texnologiyalaridan, xususan “Elektron jinoiy-huquqiy statistika” tizimi imkoniyatlaridan samarali foydalanish lozimligi asoslantirilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqot natijalari xalqaro huquq va milliy qonunchilik normalari, huquqni qo’llash amaliyotining ilg’or hamda ijobiy tajribalari, sohaga doir empirik va statistik ma’lumotlar tahlili, 623 nafar tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv, tergov, prokuratura organlari, advokatura hamda ilmiy pedagog xodimlar o’rtasida o’tkazilgan ijtimoiy so’rov natijalari, 320 ta tergovga qadar tekshiruv materiallari, 460 ta jinoyat ishi, 83 ta prokuror taqdimnomasi va 70 ta sud hukmlarini umumlashtirish orqali asoslantirilgan. Xulosa, taklif va tavsiyalar aprobatsiyadan o’tkazilib, ularning natijalari yetakchi milliy va xorijiy nashrlarda e’lon qilingan. Olingan natijalar vakolatli organlar tomonidan tasdiqlangan va amaliyotga joriy etilgan.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqotning ilmiy ahamiyati ilmiy-nazariy xulosalar, amaliy taklif va tavsiyalardan kelgusi ilmiy faoliyatda, qonun ijodkorligida, huquqni qo’llash amaliyotida, jinoyatlarni samarali tergov qilishda, kriminalistik taktika va metodikani takomillashtirish imkoniyatidan,

jinoyat-protsessual qonunchiligining tegishli normalarini sharhlash hamda istiqbolda “Jinoyat-protsessual huquqi”, “Tergov faoliyati” va “Jinoyatlarni tergov qilish metodikasi” fanlarini yanada ilmiy-nazariy jihatdan boyitishiga xizmat qiladi. O‘tkazilgan tadqiqotlarning nazariy jihatlariga tayanish ishni sudga qadar yuritishda surishtiruvchi va tergovchilarning kasbiy mahoratini oshirishga ko‘maklashishi mumkin.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, ularning amaliyotga tatbiq etilishi natijasida: birinchidan, jinoyat protsessida shaxs va davlatning qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishga erishiladi; ikkinchidan, ishni sudga qadar yuritish bosqichida jinoyat ishini yuritishga mas‘ul bo‘lgan mansabdor shaxslarning faoliyati samaradorligi ortishiga xizmat qiladi; uchinchidan, jinoyat-protsessual qonun normalarini to‘g‘ri qo‘llashga zamin yaratadi; to‘rtinchidan, normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini tayyorlashda, “Jinoyat-protsessual huquqi”, “Tergov faoliyati” va “Jinoyatlarni tergov qilish metodikasi” fanlaridan ma‘ruza va amaliy mashg‘ulotlarni o‘tkazishda, o‘quv va o‘quv-metodik qo‘llanmalarni ishlab chiqishda foydalanish orqali ularning ilmiy asoslangan holda sifat jihatdan yaxshilanishiga erishiladi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Ishni sudga qadar yuritish bosqichida protsessual muddatlarning nazariy va amaliy jihatlarini bo‘yicha olingan ilmiy natijalari quyidagilarda o‘z ifodasini topgan:

ishni sudga qadar yuritish bosqichida ushlab turish protsessual majburlov chorasining qo‘llash muddati shaxs amalda ushlanganidan, ya‘ni uning erkin harakatlanishga bo‘lgan huquqlari haqiqiy cheklangan paytdan boshlab hisoblanishi lozimligiga doir taklifidan O‘zbekiston Respublikasi Oliy sud Plenumining “O‘zbekiston Respublikasi Oliy sud Plenumining jinoyat ishlari bo‘yicha ayrim qarorlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi 2022-yil 14-maydagi 9-sonli qarorining 20-bandi ikkinchi xatboshisida foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining 2023-yil 21-dekabrda 03-23-1059-23-son dalolatnomasi). Ushbu taklifning inobatga olinishi ushlangan shaxsning protsessual huquqlarini ta‘minlashda xizmat qilgan;

ishni sudga qadar yuritish bosqichida ushlab turish muddatlari tugamagan bo‘lsa-da, sud tomonidan qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo‘llash rad qilinib, uy qamog‘i yoki garov tarzidagi ehtiyot chorasini tanlash to‘g‘risida ajrim qabul qilinganida, ushlab turish protsessual majburlov chorasining oxirgi muddati tugagan yoki tugamaganligidan qat‘i nazar gumon qilinuvchi (ayblanuvchi) sud zalidan ozod qilinishi lozimligiga doir taklifidan O‘zbekiston Respublikasi Oliy sud Plenumining “O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining jinoyat ishlari bo‘yicha ayrim qarorlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi 2022-yil 14-maydagi 9-sonli qarorining 20-bandi beshinchi xatboshisida foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining 2023-yil 21-dekabrda 03-23-1059-23-son dalolatnomasi). Ushbu taklifning inobatga olinishi ushlangan shaxsning protsessual huquqlarini ta‘minlashda xizmat qilgan;

shaxs ushlanganligi haqida ushlangan shaxsning yaqin qarindoshlariga qisqa muddatda xabar berishni ta‘minlash maqsadida ushlab turish yoki qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo‘llanilgan taqdirda, shaxsga nisbatan protsessual majburlov choralari qo‘llanilganligi va u saqlab turilgan joy haqida darhol gumon qilinuvchi,

ayblanuvchining oila a'zolaridan biriga, ular bo'lmagan taqdirda qarindoshlariga yoki yaqin kishilariga yozma ravishda xabar berilishi, shuningdek bu haqda ish yoki o'qish joyiga ma'lum qilinishi shartligiga doir taklifidan O'zbekiston Respublikasi Oliy sud Plenumining "O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining jinoyat ishlari bo'yicha ayrim qarorlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi 2022-yil 14-maydagi 9-sonli qarorining 20-bandi oltinchi xatboshisida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining 2023-yil 21-dekabrda 03-23-1059-23-son dalolatnomasi). Ushbu taklifning inobatga olinishi majburlov choralarini qo'llashni to'g'ri protsessual rasmiylashtirishga xizmat qilgan;

ishni sudga qadar yuritish bosqichida protsess ishtirokchilarining iltimosnomalarini ko'rib chiqishning aniq muddatlarini belgilash hamda dalilni maqbul emas deb topish to'g'risidagi iltimosnoma davlat va jamoat ayblovchilari, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi, uning himoyachisi, jamoat himoyachisi yoki qonuniy vakili, shuningdek, jabrlanuvchi, fuqaroviy da'vogar, fuqaroviy javobgar, ularning vakillari tomonidan ishni sudga qadar yuritishning har qanday bosqichida, dastlabki eshituv va sud majlisida arz qilinishi mumkinligiga doir taklifidan O'zbekiston Respublikasi Oliy sud Plenumining "O'zbekiston Respublikasi Oliy sud Plenumining jinoyat ishlari bo'yicha ayrim qarorlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi 2022-yil 14-maydagi 9-sonli qarorining 41-bandi uchinchi xatboshisida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining 2023-yil 21-dekabrda 03-23-1059-23-son dalolatnomasi). Ushbu taklifning inobatga olinishi protsess ishtirokchilarining isbot qilishdagi huquq va manfaatlarini ta'minlashga xizmat qilgan;

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Dissertatsiyaning asosiy mazmuni va ilmiy natijalari 2 ta xalqaro, 2 ta respublika miqyosdagi ilmiy-amaliy konferensiyalarda aprobatsiyadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi.** Tadqiqot mavzusi bo'yicha jami 14 ta ilmiy ish, jumladan, dissertatsiyaning asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda 4 ta, xorijiy jurnallarda 3 ta va ilmiy anjumanlarda 6 ta maqola, shuningdek 1 ta monografiya chop etilgan.

**Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi.** Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat bo'lib, hajmi 156 betni tashkil etadi.

## **DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI**

Dissertatsiyaning **kirish** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, ishning o'rganilganlik darajasi hamda dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi yoritilgan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, ilmiy izlanish davomida foydalanilgan usullar, ishning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan, ularning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining, aprobatsiyasi, amaliyotga joriy etilishi, ular bo'yicha nashr etilgan ishlar, shuningdek dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Ishni sudga qadar yuritish bosqichida protsessual muddatlarning mazmuni va ahamiyati”** deb nomlanib, o‘z ichiga uchta paragrafni olgan. Mazkur bobda muallif tomonidan protsessual muddatlarning qonunchilikda tutgan o‘rni, “protsessual muddat” va “oqilona muddat”larning tushunchasi, mazmun-mohiyati, ularning o‘xshash va farqli jihatlari, protsessual muddatlarni tasniflash mezonlari, vujudga kelishi hamda shakllanish bosqichlari retrospektiv tahlil qilingan.

Birinchi bobning *“Ishni sudga qadar yuritish bosqichida protsessual muddat tushunchasi, tasnifi va jinoyat-protsessual huquqda tutgan o‘rni”* deb nomlangan birinchi paragrafida JPKning 39-bobi “Protsessual muddatlar” deb nomlangan bo‘lsa-da, lekin ushbu Kodeksning biror-bir normasida protsessual muddatlarga tushuntirish berilmaganligi asosli tanqid qilingan. Shuningdek, M.X.Kadirova, T.L.Korepanova, A.V.Mordinov, I.V.Maslov, G.B.Petrova, A.A.Sultonov, U.A.Tuxtasheva kabi olimlarning protsessual muddatlarning tushunchasi, ularni uzaytirish tartibi va muddatlarning jinoyat protsessidagi ahamiyatiga oid fikrlari tahlil qilinib, ular bilan ilmiy munozaraga kirishgan holda *“protsessual muddat”* tushunchasiga mualliflik ta’rifi ishlab chiqilgan.

Jinoyat-protsessual munosabatlarda mavjud protsessual muddatlar mazmuniga ko‘ra jinoyat protsessi bosqichlari, huquqiy tabiati, funksiyasi va ta’sir doirasi hamda muddatlarni belgilovchi subyektlar va boshqa mezonlar asosida tasniflangan.

Aksariyat holatlarda protsessual muddatlar o‘zining mazmuniga ko‘ra shaxs huquq va erkinliklarining ta’minlanishi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lganligi uchun amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarda protsessual muddatlarga rioya etmaganlik uchun javobgarlik masalalarining aniq belgilanmaganligi dissertant tomonidan asosli tanqid qilingan. Shu bilan birga, xorijiy davlatlar tajribasini o‘rganish asosida protsessual muddatlarga rioya etilmagan holda to‘plangan dalillarning yuridik kuchga ega bo‘lmasligi asoslantirilgan.

Ishni sudga qadar yuritish bosqichida ayrim protsessual muddatlarning bevosita tegishli idoraviy buyruqlar, qo‘shma qarorlar yoki boshqa normativ-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinishi, JPKning 1-moddasi talablariga zid ekanligi asoslantirilib, barcha protsessual muddatlar faqat jinoyat-protsessual qonunchiligida belgilanishi lozim degan xulosaga kelingan.

Protsessual muddatlar mazmuniga oid ilmiy-nazariy yondashuvlarni tahlil qilish asosida protsessual muddatlarning ahamiyati quyidagilarda namoyon bo‘lgan: jinoyat-protsessual munosabatlarni tartibga soluvchi muhim institut; protsess ishtirokchilarining huquq va qonuniy manfaatlarini ta’minlovchi kafolat; jinoyat ishlarini o‘z vaqtida yuritilishini ta’minlovchi protsessual mexanizm; taraflar o‘rtasida protsessual tenglikni ta’minlovchi muhim vosita.

Birinchi bobning ikkinchi paragrafi *“Ishni sudga qadar yuritish bosqichida protsessual muddatlarning retrospektiv tahlili”* deb nomlanib, unda tadqiqotchi tomonidan ishni sudga qadar yuritish bosqichida protsessual muddatlarning shakllanishi va rivojlanishi tarixi shartli ravishda quyidagi to‘rt bosqichga ajratilgan:

*birinchi bosqich*, eramizning VII–VIII asrlariga qadar bo‘lgan davrni o‘z ichiga olib, ushbu davrda jinoyat ishini yuritish odat huquqi hamda zardushtiylilik dinining muqaddas kitobi “Avesto” asosida tartibga solingan hamda bu vaqt oralig‘ida

protsessual muddatlar bilan bog‘liq qoidalar qisman mavjud bo‘lgan bo‘lsa-da, aksariyat holatlarda tegishli subyektlarning xohish-istaklari asosida belgilangan.

*ikkinchi bosqich*, islom dinining kirib kelishidan boshlanib, chor Rossiyasi bosqiniga qadar (VIII asrdan XIX asrning oxiri) bo‘lgan davrni o‘z ichiga olgan bo‘lib, jinoyat va jazo masalalari islom dini aqidalariga asoslangan shariat qoidalari hamda qisman odat huquqi asosida tartibga solingan. Mazkur davrda huquqiy munosabatlarning ko‘rib chiqilishi oqilona muddat prinsipi asosida tartibga solingan;

*uchinchi bosqich* chor Rossiyasi (1864-1917-yillar) hamda Sobiq ittifoq mustamlakachiligi davri bo‘lib, protsessual muddatlar 1864-yilda qabul qilingan “Jinoyat sudlov ishlarini yuritish to‘g‘risida”gi nizom bilan tartibga solinib, 1924-1994-yillarda jinoyat-protsessual huquq kontinental huquq asosida kodekslashtirilgan tartibda shakllangan davr. Ushbu davr oralig‘ida protsessual muddatlar jinoyat-protsessual munosabatlarni tartibga soluvchi alohida institut sifatida shakllangan.

*to‘rtinchi bosqich* mustaqil O‘zbekistonda ya’ni 1994-yilda ilk milliy jinoyat-protsessual qonunchiligi shakllantirilib, huquq normalarining milliy manfaatlarni hisobga olgan holda milliy mentalitetimizga xos shakllanishi, jinoyat-protsessual muddatlarning liberallashtirishi hamda ularni protsess ishtirokchilarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta’minlanishini kafolatlovchi muhim institut sifatida rivojlanib kelayotgan davr.

Birinchi bobning uchinchi paragrafi “*Ishni sudga qadar yuritishda oqilona muddat tushunchasi va ahamiyati*” deb nomlangan bo‘lib, unda ishni sudga qadar yuritish bosqichida “*oqilona muddat*” prinsipining ahamiyati, zarurati hamda huquqiy tartibga solinishining o‘ziga xos xususiyatlari haqida so‘z yuritilgan. Mazkur paragrafda A.S. Arxipov, M.T. Ashirbekova, Ch.M. Ismailov, M.X. Kadirova, A.P. Sheremetov, A.N. Cherasheva F.M. Kudin, I.N. Polyakov, V.M. Poluxin va D.G. Rojkov kabi olimlarning jinoyat-protsessual huquq nazariyasida oqilona muddat prinsipini joriy qilish bo‘yicha yagona yondashuvning mavjud emasligi, ushbu institutni baholash mezonlarining ishlab chiqilmaganligi, shuningdek huquqni qo‘llash amaliyotida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan tushunmovchiliklarga oid qarashlari ilmiy tahlil qilingan.

“Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt”ning 9-moddasi uchinchi qismida, oqilona muddatda sud muhokamasi o‘tkazilishi lozimligi qayd etilganligi hamda mazkur xalqaro normani Rossiya Federatsiyasi, Qozog‘iston, Ukraina va qator Yevropa davlatlarining jinoyat-protsessual qonunchiligida to‘g‘ridan to‘g‘ri aks ettirilganligi dissertant tomonidan ijobiy holat sifatida e’tirof etilgan.

Oqilona muddatning mazmun-mohiyati va uning ahamiyatini to‘liq yoritib berish maqsadida, jinoyat-protsessual huquq nazariyasida oqilona muddat prinsipini hisoblash bilan bog‘liq turli qarashlar, ya’ni jinoyat sodir etilganidan yoki shaxs ariza bilan murojaat qilgandan boshlab hisoblash, jinoyat protsessida oqilonalikni ta’minlash hamda ularga baho berishda tayaniladigan mezonlar bo‘yicha ilmiy qarashlarni chuqur tahlil qilish asosida “jinoyat protsessida oqilona muddat” tushunchasiga mualliflik ta’rifi ishlab chiqilgan.

Shuningdek, oqilona muddatlarni belgilashda quyidagi mezonlar inobatga olinishi lozimligi asoslantirilgan:

*ishning murakkabligi, ya'ni jinoyat ishini yuritish va ko'rib chiqish jarayonida amalga oshirilishi zarur bo'lgan tergov va protsessual harakatlarning hajmi, ko'zdan kechirilishi lozim bo'lgan hududlarning kattaligi, so'roq qilinishi lozim bo'lgan guvoh hamda jabrlanuvchilar sonining ko'pligi, ularning tergov organlariga bo'lgan salbiy yoki ijobiy munosabati, isbotlanishi lozim bo'lgan holatlar doirasining kengligi, ayrim obyektiv omillar sabab (axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlar misolida) jinoyat ishi doirasida aybdor shaxslarni aniqlash imkoniyatini cheklanganligi va boshqalar;*

*qilmishning ijtimoiy xavfliligi, ya'ni tergov qilinayotgan jinoyat ishining og'irlik darajasi;*

*protsess ishtirokchilarining maqomi va xulq-atvori, ya'ni ishda ishtirok etayotgan shaxslarning ayblov yoki oqlov tarafida bo'lishidan qat'i nazar, ularning ijtimoiy mavqei, jabrlanuvchi va ayblanuvchining bir-biriga qanday munosabatda bo'lishi, jinoyat sodir etgan shaxsning muqaddam sudlangan yoki sudlanmaganligi, ularning aybiga iqror bo'lishi yoki bo'lmasligi, tergov organlari bilan hamkorlik qilishi, ayblanuvchiga nisbatan qo'llanilgan ehtiyot chorasining turi, ishda ishtirok etayotgan advokatlarning pozitsiyasi, shuningdek tergovning samarali olib borilishiga to'sqinlik qilishi mumkin boshqa ayrim subyektiv omillar;*

*tergov organlarining faoliyati samaradorligiga ta'sir etuvchi boshqa omillar, ya'ni tergovchilarning jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlash bilan bog'liq boshqa tashkiliy tadbirlarga jalb etilishi, mavjud shtatlarning to'liq emasligi, boshqa davlat organlari bilan axborot almashinuvini ta'minlaydigan elektron tizimlar imkoniyatlaridan unumli foydalanilmasligi, tergov bo'limida tajribali tergovchilarning yetishmasligi, tergov va tergovga qadar tekshiruv organlari o'rtasidagi hamkorlikning to'g'ri yo'lga qo'yilmaganligi, xolis, ekspert, tarjimon va boshqa mutaxassislarni jalb etishdagi tashkiliy qiyinchiliklarga yechim topilmaganligi, amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarda kollizion holatlarning mavjudligi, xalqaro huquqiy yordam olishdagi qiyinchiliklar bilan bog'liq holatlar.*

Dissertatsiyaning ***“Ishni sudga qadar yuritish bosqichida qo'llaniladigan protsessual muddatlar”*** deb nomlangan ikkinchi bobida protsessual muddatlarni hisoblashda “soat”, “sutka”, “kun”, “oy” va “yil” kabi vaqt o'lchovlaridan foydalanish, ularni hisoblashning o'ziga xos jihatlari, shuningdek tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv va dastlabki tergovning muddatlari atroflicha tahlil qilinib, ularni takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Ikkinchi bobning *“Protsessual muddatlarni hisoblash mezonlari va tergovga qadar tekshiruvda protsessual muddatlarga rioya etishning o'ziga xos xususiyatlari”* deb nomlangan birinchi paragrafida muallif M.D. Botayev, M.X. Kadirova, K.A. Kostenko, D.M. Mirazov, B.B. Murodov va boshqa olimlarning protsessual muddatlarni belgilashda “kun” va “yil” so'zlaridan ham foydalanish zarurati, JPKda qo'shimcha tergovga qadar tekshiruv muddatlarini belgilash lozimligi hamda bu bosqichda protsessual muddatlarni uzaytirish va to'xtatib turish, shuningdek tergovga qadar tekshiruv natijasiga ko'ra jinoyat ishi qo'zg'atishni rad etish qarorlari prokuror tomonidan bekor qilingandan so'ng muddatlarni hisoblash tartibiga oid fikr-mulohazalari bilan ilmiy munozaraga kirishib, ular yuzasidan o'zining mualliflik pozitsiyasini bildirgan.

JPKning 314-moddasiga muvofiq, jinoyat-protsessual munosabatlarda muddatlar soatlar, sutkalar va oylar bilan hisoblanishi qayd etilgan bo'lsa-da, ushbu Kodeksning 107, 120, 121, 121<sup>3</sup>, 148<sup>2</sup>, 166<sup>2</sup>, 182, 187<sup>2</sup>, 187<sup>5</sup>, 187<sup>6</sup>, 187<sup>7</sup>, 187<sup>8</sup>, 187<sup>10</sup>, 226, 241, 254<sup>4</sup>, 258, 268, 290, 351, 374, 381<sup>7</sup>, 381<sup>11</sup>, 405, 480, 497<sup>7</sup>, 497<sup>11</sup>, 502, 517, 523 va 531-moddalarida “kun”, 312, 484, 501, 514, 523, 533 va 544-moddalarida “yil”, shuningdek ayrim Oliy sud Plenumi qarorlarida ham “kun” kabi vaqt o'lchov birliklaridan

foydalanilgan. Shu bilan birga, tadqiqot ishida jinoyat-protsessual muddatlarni hisoblashda soat, sutka va oylar bilan bir qatorda “kun” va “yil” vaqt o‘lchov birliklaridan ham foydalanish lozimligi asoslantirilib, ularning boshlanish va tugallanish vaqtlarini hisoblash tartibi ishlab chiqilgan. Jinoyat-protsessual muddatlarni hisoblashda hafta yoki bayram kunlari kabi holatlar mavjud bo‘lganda “sutka” so‘zidan foydalanish mantiqiy va huquqiy aniqlik nuqtayi nazaridan maqbul emas. Shu bois, muddatlarni belgilash va hisoblashda “kun” atamasidan foydalanish ilmiy-amaliy jihatdan asosli hisoblanadi. So‘rovnomada ishtirok etgan respondentlarning 70 foizi ushbu muammo mavjudligini ta’kidlagan.

Huquqni qo‘llash amaliyoti tahlil qilinib, tergovga qadar tekshiruv materiallari hududiy yoki tergovga tegishlilikiga ko‘ra boshqa organga yuborilgan holatlarda, ular bo‘yicha tergovga qadar tekshiruv muddatlari yangitdan boshlanib, ushbu ish bo‘yicha avvalgi tergovga qadar tekshiruv doirasida sarf etilgan muddatlar umuman inobatga olinmayotganligi asosli tanqid qilingan. Shuningdek, bu kabi holatni jinoyat ishini qo‘zg‘atishni rad etish qarori bekor qilinib, o‘tkazilayotgan qo‘shimcha tergovga qadar tekshiruvlarda ham kuzatish mumkin. E‘tiborlisi, sanab o‘tilgan omillar tufayli ayrim arizalar bo‘yicha tergovga qadar tekshiruv muddatlari uch oygacha cho‘zilayotgan bo‘lsa-da, qonun hujjatlaridagi huquqiy bo‘shliqlar natijasida amaliyot xodimlarining mazkur faoliyatlarini qonunga xilof deb baholab bo‘lmaydi.

Shuningdek, JPKning 314-moddasida, protsessual muddatlarni hisoblashda muddat o‘tishi boshlangan soat va sutka e‘tiborga olinmasligi qat’iy belgilangan bo‘lsa-da, “E-material” elektron tizimida jinoyatga oid ariza, xabar va boshqa ma’lumotlar bo‘yicha ish ko‘rish muddati ular ro‘yxatga olingan kundan e‘tiboran boshlanmoqda. Mazkur holat JPK talablariga zid bo‘lishi bilan birga, huquqni qo‘llash amaliyotida protsessual muddatlarning noto‘g‘ri hisoblanishiga, tergovga qadar tekshiruvni olib borayotgan mansabdor shaxslarning faoliyatiga noto‘g‘ri baho berilishiga va ushbu bosqichda turli xil tushunmovchiliklarning kelib chiqishiga sabab bo‘lmoqda.

Statistik ma’lumotlar tahlilidan ma’lum bo‘ladiki, IIVning “102” raqamiga 2022-yilda 2.864.778 ta, 2023-yilda 3,5 million, 2024-yilda esa 5 millionga yaqin murojaat kelib tushgan bo‘lib, ularning salkam 95 foizi “E-material” tizimida qayd etilgan<sup>3</sup>. Aksariyat murojaatlar ma’muriy huquqbuzarlikka oid bo‘lishiga qaramay, ular bo‘yicha jinoyat ishi qo‘zg‘atishni rad etish qarorlari qabul qilingan. Ma’lumki, Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 36-moddasiga asosan, bu kabi holatlarda bir oylik muddatda ma’muriy jazo chorasi qo‘llanilishi shart. Lekin, ma’muriy huquqbuzarlikka oid ishlarni ko‘rib chiqishda majburiy keltirish, ishni ko‘rishni to‘xtatib turish, ehtiyot choralari qo‘llash, qidiruv e‘lon qilish kabi protsessual majburlov choralariidan foydalanish imkoniyatining yo‘qligi aksariyat holatlarda shaxslarni suddan yashirinishiga yoki ularni ochiqdan ochiq bo‘yin tovlashiga olib kelmoqda. Natijada, 2022-yilda 11 278 ta, 2023-yilda 12 477 ta, 2024-yilda 12 562 ta ma’muriy ish javobgarlikka tortish muddatlari buzilganligi, ya’ni bir oylik muddat o‘tib ketganligi sababli sudlar tomonidan tugatilib, ma’muriy huquqbuzarlik sodir etgan shaxsni javobgarlikdan qutulib qolishiga va keng jamoatchilikning haqli e‘tiroziga sabab bo‘lgan<sup>4</sup>. Mazkur masala so‘rovnomada ishtirok etgan respondentlarning 75 foizi tomonidan muammoli holat sifatida ko‘rsatilgan.

Huquqni qo‘llash amaliyotining tahlilidan ma’lum bo‘ldiki, pandemiya davri yoki favqulodda holatlar e‘lon qilinishi, guvohlar va jinoyatdan jabrlangan shaxslarning xorijda ekanligi sababli ulardan tushuntirishlar olishning imkonsizligi, davomli yoki uzoq muddat talab etiladigan ekspertizalarni tayinlash zarurati yuzaga kelgan holatlarda amaldagi JPKda belgilangan tergovga qadar tekshiruv o‘tkazish muddati ish holatlariga to‘liq

<sup>3</sup> O‘zbekiston Respublikasi IIV Jamoat xavfsizligi departamenti ma’lumotnomasi.

<sup>4</sup> O‘zbekiston Respublikasi IIV JXD HPBB ma’lumotnomasi.

oydinlik kiritish imkoniyatini bermaydi. Bu esa, kelgusida o'tkazilgan tergovga qadar tekshiruvning to'liq emasligi yoki qabul qilingan qarorning asosli bo'lmaganligi sababli bekor bo'lishiga olib kelmoqda. Shuning uchun ham tadqiqotda mazkur muammolarning yechimi sifatida jinoyat-protsessual munosabatlarda "tergovga qadar tekshiruvni to'xtatib turish", "tergovga qadar tekshiruv materiallarini birlashtirish, ajratish hamda jinoyat ishiga qo'shish" kabi institutlarni kiritish zarurati asoslantirilgan. Anketa so'rovda ishtirok etganlarning 86 foizi mazkur taklifni qo'llab-quvvatlagan.

Ikkinchi bobning "*Surishtiruv va dastlabki tergov bosqichida protsessual muddatlar*" deb nomlangan ikkinchi paragrafida bir qator xorijiy davlatlarda jinoyat-protsessual muddatlarni belgilash, hisoblash va uzaytirish bilan bog'liq muammolar atroflicha tahlil qilingan.

Ma'lumki, surishtiruv yoki dastlabki tergov muddatlarini uzaytirish bilan bog'liq masalalar tergov organlarining faoliyat samaradorligiga salbiy ta'sir etuvchi muhim omil sifatida baholanadi. Shuning uchun ham jinoyat ishidagi vaziyat taqozo etsa ham, amaliyotda tergov muddatlarini uzaytirish choralari deyarli ko'rilmaydi. Balki, buning o'rniga JPKning 351 va 381<sup>7</sup>-moddalarida nazarda tutilgan tartibda jinoyat ishini to'xtatish va qayta tiklash yo'li orqali tergov muddatini uzaytiriladi. Natijada, JPKdagi mazkur kollizion holat huquqni qo'llash amaliyotida tergov muddatini uzaytirmay turib ham jinoyat ishini 4-5 oylab tergov qilish imkoniyatini bermoqda. Tadqiqotda, bunday mazmundagi salbiy amaliyotga barham berish maqsadida asoslantirilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Ushlab turish, qamoqqa olish yoki uy qamog'i tarzidagi ehtiyot choralari shaxsning huquqlari va erkinliklari bilan chambarchas bog'liq bo'lganligi sababli, ularni qo'llash muddatlarini tadqiq etish masalalariga dissertant alohida e'tibor qaratgan. Xususan, amaldagi JPKda prokuror tomonidan tergovchining ehtiyot chorasini qo'llash to'g'risida iltimosnoma qo'zg'atish haqida qarori mazmuni bilan yaqindan tanishib, o'rnatilgan tartibda tasdiqlashi va sudga yuborishi uchun aniq muddatlar belgilanmagan. Bu esa, tergov amaliyotida turli xil tushunmovchiliklarni keltirib chiqarmoqda. Mazkur muammoni hal etish uchun quyidagilar taklif etilgan: *birinchidan*, ushlab turilgan shaxsga nisbatan uy qamog'i yoki qamoqqa olish ehtiyot chorasini tanlash bilan bog'liq hujjatlarning elektron nusxasi "Elektron jinoiy – huquqiy statistika" yagona axborot tizimiga kiritilib, prokurorga yuborilishi, qaror prokuror tomonidan ko'pi bilan ikki soat ichida tasdiqlanib, to'plangan hujjatlar ushbu tizim orqali tegishli sudga yuborilishi, hujjatlarning asl nusxasi prokuror tasdiqlaganidan so'ng sudga taqdim etilishi; *ikkinchidan*, tizim orqali kelib tushgan iltimosnoma qo'zg'atish haqidagi qarorga prokuror rozilik bermagan hollarda prokuror iltimosnoma qo'zg'atishni rad etish haqida qaror chiqarishi va tizimga yuklashi lozim.

Shuningdek, huquqni qo'llash amaliyoti tahlilidan ma'lum bo'ldiki, ayblanuvchiga nisbatan qo'llanilgan qamoqqa olish muddati tugagan holatlarda, prokuror tomonidan qamoqqa olish muddatini uzaytirish choralari ko'rilmaydi. Natijada, shaxs qonunga xilof ravishda ozodlikdan mahrum etish joylarida qoladi. E'tiborlisi, aynan mazkur masalaga shaxs saqlanayotgan tergov hibsonalari rahbarlari ham, ishni ko'rib chiqishga mas'ul bo'lgan tegishli sudyalari ham yetarlicha e'tibor qaratmaydi. Tadqiqotda mazkur amaliyot qo'pol xatolik sifatida e'tirof etilib, uni bartaraf etish uchun qamoqqa olish ehtiyot chorasining muddatlarini mavjud dasturiy ta'minotlar imkoniyatidan samarali foydalanilgan holda elektron tartibda hisoblash amaliyotini yo'lga qo'yish zarurati asoslantirilgan.

Bundan tashqari, JPKning 226-moddasida gumon qilinuvchiga nisbatan "alohida hollarda" qamoqqa olish, uy qamog'i yoki garov ehtiyot choralari qo'llash mumkinligi belgilangan. Ammo qonunda "alohida hollar" tushunchasining aniq ta'rifi berilmaganligi

amaliyotda turlicha talqinlarga va suiiste'molliklarga olib kelmoqda. Dissertant tomonidan gumon qilinuvchining shaxsi aniqlanmaganligi yoki doimiy yashash joyi yo'qligi; jazoni o'tayotgan davrda jinoyat sodir etganligi; ekspertiza xulosasi yoki taftish natijalarini kutish zarurati; ko'p epizodli yoki guruh tarkibida sodir etilgan jinoyatlar bo'yicha dalillarni to'plash uchun qo'shimcha vaqt talab etilishi; favqulodda vaziyatlar (karantin, epidemiya); shaxsning tergovdan yashirinishi, dalillarni yo'q qilishi yoki guvohlarga bosim o'tkazishi xavfi mavjudligi kabilar alohida hollar sifatida belgilanishi lozimligi asoslantirilgan.

Dissertatsiyaning **“Ishni sudga qadar yuritish bosqichida protsessual muddatlarni belgilashda ayrim xorijiy davlatlar tajribasi hamda milliy qonunchilikni takomillashtirish istiqbollari”** deb nomlangan uchinchi bobida jinoyat-protsessual muddatlar bilan bog'liq ayrim xorijiy davlatlar tajribasi o'rganilib, mamlakatimizda mazkur institutni takomillashtirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Uchinchi bobning *“Ishni sudga qadar yuritishga doir protsessual muddatlar bo'yicha xorijiy tajriba”* deb nomlangan birinchi paragrafida jinoyat protsessida muddatlarni belgilash va tartibga solish bo'yicha o'ndan ortiq davlatlar, xususan Belarus, Ukraina, Qozog'iston Respublikalari, Rossiya Federatsiyasi, Germaniya, Fransiya Italiya, AQSH, Buyuk Britaniya, Janubiy Koreya va boshqa qator davlatlarning protsessual muddatlarni qo'llashdagi ilg'or tajribalari tadqiq etilgan.

Xorijiy davlatlarning protsessual muddatlarni tartibga solish bo'yicha mavjud ilg'or tajribasini o'rganish asosida, quyidagi ijobiy holatlar aniqlandi: *birinchidan*, Rossiya Federatsiyasi, Ukraina va Qozog'iston Respublikalarida *“oqilona muddat”* prinsipining mavjudligi. Bu prinsip nafaqat protsessual norma sifatida, balki protsess ishtirokchilariga kompensatsiya olish huquqini beruvchi huquqiy mexanizm sifatida e'tirof etilishi; *ikkinchidan*, Qozog'iston va Ukraina Respublikalari tergovga qadar tekshiruv yoki jinoyat ishini qo'zg'atish bosqichi o'rniga jinoyatga oid xabarlar kelib tushishi bilan yagona reestr tizimida ro'yxatdan o'tkazilib, tergov harakatlarining boshlanishi tartibini joriy etgan bo'lib, mazkur amaliyot orqali protsessual muddatlarni yanada aniqroq hisoblash va jinoyatlarni yashirishning oldini olishga erishgan; *uchinchidan*, Germaniya Federativ Respublikasida sodir etilgan jinoyatlarning ijtimoiy xavflilik darajasiga qarab, ular doirasida ushlab turish va boshqa protsessual majburlov turlarini qo'llash muddatlarining tabaqalashtirish tizimini mavjudligi; *to'rtinchidan*, Belarus Respublikasi qonunchiligida tergovga qadar tekshiruvni to'xtatib turish, birlashtirish va ajratish mexanizmlarini mustahkamlanganligi; *beshinchidan*, Janubiy Koreya Respublikasida elektron jinoyat protsessi tizimini joriy etish yo'li bilan shaxsning huquqlarini cheklaydigan protsessual muddatlarni qisqartirishga erishilganligi va boshq.

Uchinchi bobning *“Ishni sudga qadar yuritishda protsessual muddatlarni takomillashtirish istiqbollari”* deb nomlangan ikkinchi paragrafida protsessual muddatlarni takomillashtirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot ishida milliy qonunchilikni xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish, jinoyat ishlarini kechiktirmasdan ko'rib chiqishni ta'minlash va protsess ishtirokchilarining huquqlarini kafolatlash maqsadida *“oqilona muddat”* prinsipini jinoyat-protsessual qonunchiligiga tatbiq etish lozimligi asoslantirilgan.

*“Oqilona muddat”* prinsipini bosqichma-bosqich joriy etish: *birinchi bosqich* - prinsipni JPKda umumiy qoida sifatida belgilash, prokurorga oqilonalik mezonidan kelib chiqib muddat belgilash vakolatini berish; *ikkinchi bosqich* - protsess ishtirokchilariga ishni oqilona muddatda ko'rib chiqishni talab qilish huquqini berish, muddatlar buzilganda shikoyat qilish mexanizmini yaratish; *uchinchi bosqich* - tergov sudyasining muddatlarni nazorat qilish vakolatini kuchaytirish, sud muhokamasida

“oqilona muddat”ga rioya etishni qonuniy kafolatlash, muddatlar buzilish natijasida yetkazilgan zarar uchun protsess ishtirokchilariga kompensatsiya to‘lash hamda ishni eng oqilona muddatlarda tamomlagan surishtiruvchi va tergovchilarni rag‘batlantirish tartibini belgilash taklif etilgan.

Tahlillardan ma’lum bo‘ldiki, jinoyat ishi doirasida protsess ishtirokchilari tomonidan berilgan murojaat va iltimosnomalarni ko‘rib chiqish asoslari va protsessual muddatlari amaldagi jinoyat-protsessual qonunchilikda belgilanmagan. Tadqiqotda, murojaat va iltimosnomalar uch kun ichida mazmunan ko‘rib chiqilib, ular bo‘yicha qanoatlantirish, qisman qanoatlantirish yoki rad etish to‘g‘risida asoslantirilgan qaror qabul qilinishi lozim. Iltimosnoma bo‘yicha qanoatlantirish yoki qisman qanoatlantirish haqida qaror qabul qilingan holatlarda, ularda keltirilgan vajlarni tekshirish yoki boshqa mazmundagi iltimoslar yuzasidan tergov va protsessual harakatlar o‘tkazish jinoyat ishini ko‘rib chiqishning umumiy muddatlari doirasida amalga oshirilishi lozimligi asoslantirilgan.

Surishtiruv va dastlabki tergovning to‘liq emasligi yoki jinoyat-protsessual qonun normalarining jiddiy buzilishlarini bartaraf etish bo‘yicha sud tomonidan chiqarilgan ajrimlarda ko‘rsatilgan vazifalar ijrosi uchun qonunda bir oylik muddat belgilangan bo‘lsa-da, prokurorning JPK 416-417-moddalari asosida ish yuritish borasidagi vakolatlari aniq belgilanmaganligi, muddatlarni uzaytirish yoki to‘xtatib turish mexanizmi mavjud emasligi kabi salbiy omillar tufayli, huquqni qo‘llash amaliyotida mazkur muddatni to‘rt oygacha davom etish holatlari kuzatilmoqda. Tadqiqotda bu kabi muammolarni bartaraf etish uchun qonunchilikda sudning ajrimida belgilangan vazifalarning ijrosini ta’minlash muddatlarini uzaytirish tartibini belgilovchi maxsus normalarni kiritish va prokurorning protsessual vakolatlarini aniqlashtirish zarurati asoslantirilgan.

## X U L O S A

Olib borilgan tadqiqot natijalari nazariy, amaliy-tashkiliy va qonunchilikni takomillashtirishga qaratilgan quyidagi ilmiy xulosa, taklif va tavsiyalarga ajratilgan holda bayon etildi:

### **I. Jinoyat-protsessual muddatlarni takomillashtirishga doir nazariy bilimlarni boyitishga qaratilgan ilmiy xulosa va tavsiyalar:**

1. Mavzu doirasida *jinoyat-protsessual muddatlar* va *jinoyat protsessida oqilona muddat* tushunchalariga mualliflik ta’rifi ishlab chiqildi:

*Jinoyat-protsessual muddatlar* – jinoyat-protsessual qonun hujjatlarida belgilangan yoki ish doirasida qabul qilingan protsessual qarorlar yoxud protsessual harakatlar orqali hosil bo‘ladigan, belgilangan vaqt doirasida protsessual harakatlarni amalga oshirilishi, cheklanilishi yoki qarorlarning ijro etilishini taqozo etadigan, zarurat tug‘ilganida to‘xtatilishi, uzaytirilishi yoki tiklanishi mumkin bo‘lgan, ularga rioya etilmasligi protsessual oqibatlariga olib keladigan, jinoyat protsessining tezkorligi, samaradorligi hamda shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta’minlanishini kafolatlaydigan huquqiy institutdir.

*Jinoyat protsessida oqilona muddat* — bu jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasi, isbotlanishi lozim bo‘lgan holatlar doirasi, ishning murakkabligi, amalga oshirilishi zarur bo‘lgan tergov va boshqa protsessual harakatlar hajmi, tergov va sud organlarining ish yuklamasi, tegishli hududdagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat hamda qonunda nazarda tutilgan boshqa mezonlardan kelib chiqib, jinoyat ishini har tomonlama, to‘liq va xolis ko‘rib chiqish uchun zarur hamda yetarli deb hisoblanadigan vaqt oralig‘idir.

2. Ishni sudga qadar yuritish bosqichida protsessual muddatlar quyidagi mezonlari asosida tasniflanishi lozimligi asoslantirilgan: muddatlarni belgilash usuli; jinoyat protsessining bosqichlari; muddatlarning mazmuni (protsessual harakatlar, tergov harakatlari); muddatlarning jinoyat protsessidagi funksiyasi (imkoniyat buruvchi, cheklovchi); ta'sir ko'rsatish obyektiga ko'ra muddatlar.

3. "Oqilona muddat"ni belgilashda tergov qilinayotgan jinoyat(lar)ning ijtimoiy xavflilik darajasi, isbotlanishi lozim bo'lgan holatlarning doirasi, ishning murakkabligi, amalga oshirilishi zarur bo'lgan tergov va boshqa protsessual harakatlar hajmi, tergov va sud organlarining ish yuklamasi, tegishli hududdagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat hamda qonunda nazarda tutilgan boshqa mezonlarga tayanish lozimligi asoslantirilgan;

4. Jinoyat-protsessual muddatlarni hisoblashda soat, sutka va oylar bilan bir qatorda "kun" va "yil" kabi vaqt o'lchovlaridan ham foydalanish lozimligi asoslantirilib, ularni hisoblash mezonlari ishlab chiqilgan.

## **II. Qonunchilik normalarini takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar:**

1. JPKning 314-moddasini quyidagi tahrirda bayon etish:

### *314-modda. Muddatlarni hisoblash*

*Ushbu Kodeksda belgilangan muddatlar, shuningdek qonunda nazarda tutilgan hollarda tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi mansabdor shaxs, surishtiruvchi, tergovchi, prokurorning qarori yoki sudning ajrimi bilan tayinlangan muddatlar soatlar, sutkalar, kunlar, oylar va yillar bilan hisoblanadi. Muddatlarni hisoblashda muddatning o'tishi boshlangan soat va kun hisobga olinmaydi, ammo bu qoida ushlab turish, qamoqda saqlash yoki uy qamog'ida va tibbiy muassasada bo'lish muddatlarini hisoblashga taalluqli emas.*

*Muddatni hisoblashda ishdan holi vaqt ham e'tiborga olinadi. Muddatlar sutkalar bilan hisoblanganda kunning qaysi vaqtida (soatda) sutka o'tishi boshlangan bo'lsa, keyingi kunning o'sha vaqti (soati) yakunlanadi. Kunlar bilan hisoblaganda esa muddatning oxirgi kuni soat 24:00 da tugaydi. Oylar bilan hisoblanadigan muddat oxirgi oyning muddat o'tishi boshlangan sanasiga kelgan kunida tugaydi. Agar muddatning tugashi tegishli sana bo'lmagan oyga to'g'ri kelsa, u oyning so'nggi kunida yakunlanadi. Yillar bilan hisoblanganda, muddat o'tishi boshlangan oy va kun bir yil (12 oy) o'tgach takrorlanib keladi va shu kunda tugaydi.*

*Tegishli harakat sudda, prokuraturada yoki boshqa davlat muassasasida bajarilishi lozim bo'lsa, muddat ushbu muassasalarda ish vaqti tamom bo'lishi bilan tugaydi.*

*Muddatning tugashi dam olish yoki bayram kuniga to'g'ri kelsa, u keyingi birinchi ish kunida yakunlanadi. Bu qoida ushlab turish, qamoqda saqlash, uy qamog'i va tibbiy muassasada bo'lish muddatlarini hisoblashga tatbiq etilmaydi.*

*Jinoyat protsessi ishtirokchilarining protsessual muddatlarga rioya qilmasdan amalga oshirgan protsessual harakatlari yoki qabul qilgan protsessual qarorlari haqiqiy emas deb topiladi.*

*Protsess ishtirokchilari jinoyat ishini yuritishga mas'ul bo'lgan davlat organlari va mansabdor shaxslarning jinoyat-protsessual qonunchiligida belgilangan muddatlarga rioya etmaganligi holatlari yuzasidan shikoyat bilan murojaat qilishlari mumkin.*

2. JPKni quyidagi mazmundagi 329<sup>1</sup>-modda bilan to'ldirish:

*329<sup>1</sup>-modda. Jinoyatga oid arizalar, xabarlar va boshqa ma'lumotlarni ko'rib chiqishni to'xtatib turish va tiklash.*

*Jinoyatga oid arizalar, xabarlar va boshqa ma'lumotlarni ko'rib chiqish ushbu Kodeks 330-moddasi birinchi qismining 1-3-bandlarida nazarda tutilgan qaror qabul*

qilishga to'sqinlik qiluvchi quyidagi asoslardan biri mavjud bo'lganda tergovga qadar tekshiruv organining mansabdor shaxsi, surishtiruvchi, tergovchi yoki prokurorning asoslantirilgan qarori bilan to'xtatib turilishi mumkin:

- 1) xalqaro so'rovga javob olinmaganda;
- 2) ekspertiza yoki taftish o'tkazish natijalari olinmaganda;
- 3) e'lon qilingan favqulodda holatlarda yoxud ushbu Kodeks 329-moddasining ikkinchi qismida ko'rsatilgan tergov va protsessual harakatlarni amalga oshirish mumkin bo'lmaganda.

Tekshirish to'xtatib turilgan jinoyatga oid arizalar, xabarlar va boshqa ma'lumotlar bo'yicha tekshirish materiallari bilan birgalikda tegishli qaror qabul qilingandan keyin uch sutka ichida dastlabki tergov ustidan nazoratni amalga oshiruvchi prokurorga yuboriladi.

Jinoyatga oid arizalar, xabarlar va boshqa ma'lumotlar bo'yicha tekshirishni to'xtatib turishning umumiy muddati ikki oydan oshmasligi kerak.

Jinoyatga oid arizalar, xabarlar va boshqa ma'lumotlar bo'yicha to'xtatilgan tekshiruv yuzasidan ushbu Kodeks 329-moddasining ikkinchi qismida ko'rsatilgan harakatlarni amalga oshirishga yo'l qo'yilmaydi, davom etayotgan taftish va ekspertiza tekshiruvlari to'xtatilmaydi.

Jinoyatga oid arizalar, xabarlar va boshqa ma'lumotlar bo'yicha to'xtatib turilgan tekshirish uni to'xtatib turish uchun asoslar barham topganidan yoki ushbu Kodeks 329-moddasining ikkinchi qismida ko'rsatilgan qo'shimcha harakatlarni amalga oshirish zarurati tug'ilganidan keyin tergovga qadar tekshiruv organining mansabdor shaxsi, surishtiruvchi, tergovchi yoki prokurorning asoslantirilgan qarori bilan qayta tiklanadi.

Jinoyatga oid arizalar, xabarlar va boshqa ma'lumotlar bo'yicha tekshirishni to'xtatib turish qarori prokuror tomonidan bekor qilingan hollarda tekshirish tiklangan hisoblanadi.

Jinoyatga oid arizalar, xabarlar va boshqa ma'lumotlar bo'yicha tekshirish o'tkazish to'xtatilganligi va qayta tiklanganligi haqida 24 soat ichida arizachi xabardor qilinadi. Tekshirishni o'tkazishni to'xtatib turish va tiklash to'g'risidagi qarorlarning ko'chirma nusxalari 24 soat ichida prokurorga yuboriladi. Tekshirish o'tkazishni to'xtatib turish to'g'risidagi qaror ustidan prokurorga shikoyat qilinishi mumkin.

3. JPKni quyidagi mazmundagi 329<sup>2</sup>-modda bilan to'ldirish:

**“329<sup>2</sup>-modda. Jinoyatga oid arizalar, xabarlar va boshqa ma'lumotlarni birlashtirish, ajratish va jinoyat ishiga qo'shish.**

Bitta ish yurituvga faqat bir necha shaxsning bir yoki bir necha jinoyatni birgalashib sodir etganligiga doir yoxud bir shaxsning bir necha jinoyatni sodir etganligi holati yuzasidan o'tkazilayotgan tergovga qadar tekshiruv materiallari birlashtirilishi mumkin.

Jinoyatga oid arizalar, xabarlar va boshqa ma'lumotlar bo'yicha olib borilayotgan tergovga qadar tekshiruv doirasida boshqa hudud yoki tergovga tegishli bo'lgan yoxud boshqa shaxslar tomonidan sodir etilgan yangi holat aniqlangan hollarda tekshiruv materiallarining bir qismini ajratishga, basharti bu ish holatlari bo'yicha zarur bo'lib qolsa hamda bunday ajratish tekshiruv o'tkazish va qaror qabul qilish to'liq va xolisona bo'lishiga ta'sir qilmasa, yo'l qo'yiladi.

Tergovga qadar tekshiruv materiallarini birlashtirish va va ajratish tergovga qadar tekshiruv organining mansabdor shaxsining, surishtiruvchining, tergovchining, prokurorning qarori bilan amalga oshiriladi.

*O'tkazilayotgan tergovga qadar tekshiruv bo'yicha jinoyat ishi qo'zg'atilgan va tergov harakatlari olib borilayotganligi aniqlangan hollarda to'plangan hujjatlar jinoyat ishini yuritayotgan surishtiruvchining, tergovchining va prokurorning qaroriga asosan jinoyat ishiga qo'shib qo'yilishi mumkin.*

*Tergovga qadar tekshiruv materiallari birlashtirilayotganda ular bo'yicha muddatlar uzoqroq muddat davomida tekshirish olib borilgan ish materiali muddati bo'yicha belgilanadi. Bunda qolgan tergovga qadar tekshiruv materiali bo'yicha ish yuritish muddati uzoqroq tergov qilingan ishning muddati bilan qamrab olinadi va qo'shimcha ravishda hisobga olinmaydi.*

*tergovga qadar tekshiruv materialidan ajratib olingan holat bo'yicha muddatlar materialni bir qismini ajratish haqida qaror chiqarilgan va ushbu holat jinoyatga oid ariza, xabar va boshqa ma'lumot sifatida ro'yxatga olingan kundan e'tiboran hisoblanadi.*

*Tergovga qadar tekshiruv materiallari birlashtirilgan, ajratilgan va jinoyat ishiga qo'shib qo'yilgan hollarda 24 soat ichida nazorat qiluvchi prokurorga va manfaatdor shaxslarga bu haqida xabar beriladi."*

4. JPKning 351-moddasi sakkizinchi qismini "tergovchi qabul qilgan paytdan e'tiboran" degan so'zlardan keyin "agar uch oylik dastlabki tergov muddati yakunlangan hamda uzaytirilmagan bo'lsa" so'zlari bilan to'ldirish;

5. JPKni quyidagi mazmundagi 358<sup>1</sup>-modda bilan to'ldirish:

***"358<sup>1</sup>-modda. Jinoyat ishi bo'yicha kelib tushgan murojaatlar va iltimosnomalarni ko'rib chiqish tartibi.***

*Ishni sudga qadar yuritish hamda sud bosqichida kelib tushgan murojaatlar va iltimosnomalar ishni yuritishga mas'ul bo'lgan mansabdor shaxslar tomonidan ko'rib chiqiladi.*

*Protsess ishtirokchilarining jinoyat ishi doirasida bergan murojaatlari va iltimosnomalari qabul qilib olinganidan so'ng ko'rib chiqishga qabul qilinganligi bo'yicha uch kun ichida murojaat muallifiga xabar berish, iltimosnomalar bo'yicha to'liq qanoatlantirish, qisman qanoatlantirish yoki rad etish haqida qaror taqdim etilishi lozim.*

*Iltimosnomani qanoatlantirish yoki qisman qanoatlantirish haqida qaror qabul qilinganida va murojaatlar ko'rib chiqish uchun qabul qilinganidan so'ng ularda keltirilgan vajlarni tekshirish yoki so'ralayotgan tergov hamda protsessual harakatlarni o'tkazish jinoyat ishini ko'rib chiqish muddatlari doirasida amalga oshiriladi."*

6. JPKning 372-moddasining ikkinchi qismi matnini quyidagi mazmunda bayon etish:

*"...dastlabki tergov ayblov xulosasi tuzish, ishni tibbiy yo'sindagi majburlov choralarini qo'llash yoki amnistiya aktiga asosan tamomlanayotganda, jinoyat ishi yuzasidan shaxsga nisbatan tanlangan qamoqqa olish yoki uy qamog'i ehtiyot chorasi tanlangan va qamoq muddati tugashiga 10 kun va undan kam vaqt qolgan hollarda qamoq muddatini uzaytirish masalasini hal etishi lozim."*

7. JPKning 381<sup>7</sup>-moddasi sakkizinchi qismidagi "surishtiruvchi qabul qilgan paytdan e'tiboran" jumllalaridan keyin "agar bir oylik surishtiruv muddati yakunlangan hamda uzaytirilmagan bo'lsa" jumllari bilan to'ldirish.

8. JPKning 385-moddasi ikkinchi qismi matnini quyidagi mazmunda bayon etish:

*"...Basharti ayblovni to'ldirish yoki uni og'irlashtirish tomoniga yoxud haqiqiy holatlarga ko'ra avvalgi ayblovdan jiddiy farq qiladigan tomonga o'zgartirish talab qilinsa, prokuror yoki uning o'rinbosari qo'shimcha yoki o'zgartirilgan ayb e'lon*

qilish uchun ishni qo‘shimcha tergovga qaytaradi. Ishni qo‘shimcha tergovga qaytarish haqida qaror chiqarish bilan birga, shaxsning qamoqda bo‘lish muddati inobatga olinishi hamda qamoq muddati tugashiga o‘n kun va undan kam vaqt qolgan bo‘lsa uni uzaytirish masalasini hal etish to‘g‘risida yozma ko‘rsatma berish shart.

9. JPK 385-moddasini quyidagi mazmundagi uchinchi va to‘rtinchi qism bilan to‘ldirish:

*“Prokuror yoki uning o‘rinbosari ushbu Kodeksning 416-417-moddasida nazarda tutilgan tartibda chiqarilgan sud ajrimlari yuzasidan tergov organi tomonidan bir qismini tugatish qarori qabul qilingan, qo‘shimcha, yangi ayblov xulosasi yoki ayblov dalolatnomasi bilan kelgan hujjatlarni ko‘pi bilan uch sutkada ko‘rib chiqadi.*

*Prokuror mazkur moddaning birinchi qismi 1,2,3-bandida keltirilgan qarorlardan birini yoki qabul qilingan qarorni bekor qilish haqida qaror qabul qilishi va ishni qo‘shimcha tergovga qaytarishi mumkin.”*

10. JPKni quyidagi mazmundagi 417<sup>1</sup>-modda bilan to‘ldirish:

*“417<sup>1</sup>-modda. Surishtiruv, dastlabki tergovning to‘liq emasligini yoki jinoyat-protsessual qonuni normalarining jiddiy buzilishlarini bartaraf etish muddatlari.*

*Sudlar tomonidan ushbu Kodeksning 416-417-moddalarida nazarda tutilgan tartibda chiqarilgan ajrimlar tergov organi tomonidan bir oygacha bo‘lgan muddatda hal etilishi lozim.*

*Sud ajrimini ijro etish davomida ushbu moddaning birinchi qismida belgilangan muddat yetarli bo‘lmagan hollarda prokurorning asoslantirilgan iltimosnomasiga ko‘ra ajrim chiqargan sud tomonidan qo‘shimcha bir oygacha uzaytirilishi mumkin.*

*Prokuror tomonidan kiritilgan iltimosnoma sudga dastlabki muddat tugashidan besh kun oldin taqdim qilinishi lozim. Sudya iltimosnomani qirq sakkiz soat ichida yakka tartibda ko‘rib chiqadi va qanoatlantirish yoki qanoatlantirmaslik haqida ajrim chiqaradi. Iltimosnoma sud tomonidan qanoatlantirmagan holatda tergov organi besh kun muddat ichida yakuniy qaror qabul qilgan holda ajrim ijrosi yuzasidan to‘plangan hujjatlarni sudga taqdim qilishi lozim.*

*Ajrim ijrosi yuzasidan muddat uzaytirilganda sud bu haqida taraflarga xabar beradi.*

*Prokuror yoki uning o‘rinbosari ushbu Kodeksning 416-417-moddalarida nazarda tutilgan ajrim yuzasidan tergov organi tomonidan qabul qilingan qarorlarni bekor qilganida, tuzilgan qo‘shimcha yoki yangi ayblov xulosasi bilan kelgan hujjatlarni qo‘shimcha tergovga qaytargan holatlarda tergov organi o‘n kunlik muddatda ajrim ijrosini ta‘minlab, to‘plangan hujjatlarni prokurorga taqdim qilishi lozim.”*

11. 2020-yil 2-noyabrdagi 62, 30, 78, 27-q/q, 40, 01-02/22-56, 46-son qo‘shma qarori bilan tasdiqlangan “Jinoyat va xodisalarga oid ariza, xabar va boshka ma‘lumotlarni kabul qilish, ro‘yxatga olish va kurib chikish tartibi tugrisida”gi nizomni tasdiklash xakida nizomning 85-bandiga quyidagi mazmundagi ikkinchi qism bilan to‘ldirish:

*“tergovga tegishliligiga ko‘ra yuborilayotganda bu haqida qabul qilingan qaror va to‘plangan materialda mavjud barcha hujjatlarning skanerlangan nusxalari tizimga yuklanishi va hujjatlarning asl nusxalarini yigirma to‘rt soatlik muddat ichida tegishli organga pochta aloqasi orqali yuborilishi lozim”.*

12. “Elektron jinoiy – huquqiy statistika” yagona axborot tizimini yuritish tartibi to‘g‘risidagi nizomning 10-bobini quyidagi mazmundagi 69<sup>1</sup>-band bilan to‘ldirish:

*“69<sup>1</sup>. Ushlab turilgan shaxsga nisbatan uy qamog‘i yoki qamoqqa olish ehtiyot chorasini qo‘llash bilan bog‘liq hujjatlarning elektron nusxasi Yagona axborot*

tizimiga kiritiladi va ko'rib chiqish uchun prokurorga yuboriladi. Qaror prokuror tomonidan tasdiqlanganidan so'ng to'plangan hujjatlar tizim orqali tegishli sudga yuboriladi. Ehtiyot chorasini bo'yicha sud tomonidan qabul qilingan ajrim ma'lumotlarni ro'yxatga olish subyektini tomonidan Yagona axborot tizimiga darhol kiritilishi lozim.

### **III. Huquqni qo'llash amaliyotini takomillashtirishga oid taklif va tavsiyalar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Oliy sud Plenumining 2007-yil 14 noyabrdagi "Sudga qadar ish yuritish bosqichida qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasining sudlar tomonidan qo'llanilishi to'g'risida" 16-sonli qarori 9-bandini quyidagi tahrirdagi to'rtinchi qism bilan to'ldirish:

*"surishtiruvchi yoki tergovchining qamoqqa olish yoki uy qamog'i tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash to'g'risida iltimosnoma qo'zg'atish haqida qarori ushlab turilgan gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchiga nisbatan chiqarilgan bo'lsa, to'plangan materiallar sudga taqdim qilinishdan kamidan ikki soat oldin prokurorga taqdim qilinishi, to'plangan hujjatlar elektron tarzda yuborilganda prokuror ikki soat ichida ularni tasdiqlashi yoki rad etishi lozim."*

2. Tergovga qadar tekshiruv vaqtida ish hujjatlarini tergovga tegishlilikiga ko'ra yuborish davomida quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim:

tergovga tegishlilik asosida yuborilayotgan tergovga qadar tekshiruv materiallari yuzasidan qaror qabul qilishning qat'iy tartibini joriy etish;

"E-material" axborot tizimining funksional imkoniyatlarini kengaytirish, xususan:

protsessual hujjatlarning elektron (skanerlangan) nusxalarini tegishli organlarga yuborish mexanizmini takomillashtirish;

hujjatlarning asl nusxalarini belgilangan yigirma to'rt soatlik muddat ichida pochta aloqasi orqali jo'natish tartibini joriy qilish.

3. Tergovga qadar tekshiruv materiallari yuzasidan qabul qilingan jinoyat ishi qo'zg'atishni rad etish qarori keyinchalik prokuror tomonidan bekor qilinishi va bu jarayon qayta-qayta amalga oshirilishining oldini olish maqsadida:

jinoyat ishi qo'zg'atishni rad etish qarori qabul qilinganidan so'ng ushbu qarorning birinchi marta bekor qilinishi natijasida o'tkaziladigan qo'shimcha tergovga qadar tekshiruv dastlab 10 kun va prokurorning roziligi bilan ko'pi bilan 30 kunga uzaytirilishi mumkin. Jinoyat ishi qo'zg'atishni rad etish qarori bekor qilingan ish bo'yicha yana jinoyat ishi qo'zg'atish rad etilgan holatda nazorat qiluvchi prokuror tomonidan xulosa qilinishi lozim.

ikkinchi marta jinoyat ishi qo'zg'atishni rad etish qarori bekor qilingan ish hujjatlari bo'yicha qayta jinoyat ishi qo'zg'atishni rad etishga viloyat miqyosidagi tegishli organning rahbari tomonidan ruxsat etish tartibini kiritish;

tergovga qadar tekshiruv davomida asossiz yoki zarur tekshiruv ishlarini olib bormasdan jinoyat ishi qo'zg'atishni rad etish hamda shu tarzda jinoyat ishi qo'zg'atishni rad etish qarorini bekor qilish qarorlarining asoslilikini ta'minlash maqsadida tergovga qadar tekshiruv olib boruvchi mansabdor shaxslar va nazorat qiluvchi prokurorlar faoliyati ustidan doimiy idoraviy nazorat choralarini belgilash lozim.

4. Jinoyat ishlarini asossiz ravishda to'xtatish va tiklash orqali uzoq muddat tergov qilishni oldini olish maqsadida quyidagi tartibni joriy etish lozim:

- JPKning 364-moddasi birinchi qismi birinchi bandiga asosan, ya'ni jinoyat sodir etgan shaxs aniqlanmaganligi sababli ish to'xtatilganda, prokurorning asoslantirilgan xulosasi talab etilishi lozim.

- prokurorning yuqorida keltirilgan xulosasi nafaqat elektron tizimga yuklanishi, balki uning nusxasi jinoyat ishi materiallariga ham qo‘shib qo‘yilishi lozim.

Tadqiqot davomida prokuror xulosasi shakli ishlab chiqildi.

5. Huquqni qo‘llash bo‘yicha yagona amaliyotni shakllantirish maqsadida tergovga qadar tekshiruvni to‘xtatib turish va muddatni tiklash qarorlarining loyihasi ishlab chiqildi.

6. Jinoyatga oid xabarlar yuzasidan tergovga qadar tekshiruv olib borish tartibi va bu bilan bog‘liq muddatlarni takomillashtirish maqsadida tergovga qadar tekshiruv vaqtida jinoyatga oid murojaatlarni birlashtirish, ajratish va jinoyat ishiga qo‘shish qarorlar loyihasini ishlab chiqildi.

7. “Oqilona muddat” institutini milliy qonunchiligimizga quyidagi bosqichlarda bosqichma-bosqich joriy etish lozim:

*Birinchi bosqich:*

“Oqilona muddat” tushunchasini jinoyat-protsessual qonunchiligida umumiy prinsip sifatida mustahkamlash;

prokuror, tergov boshqarmasi (bo‘lim, bo‘linma, guruh) rahbarlariga ishning murakkabligi, jinoyatning og‘ir-yengilligi va boshqa holatlardan kelib chiqib, oqilona muddatlarni belgilash vakolatini berish;

protsess ishtirokchilari va ularning himoyachilariga sudgacha bo‘lgan bosqichda ishni oqilona muddatda ko‘rib chiqish yuzasidan iltimosnoma bilan murojaat qilish huquqini berish;

ishni oqilona muddatda ko‘rib chiqishga rag‘batlantiruvchi normalarni (masalan, muddatlarga rioya qilgan holda ishni yakunlagan tergovchilarni rag‘batlantirish) keng joriy etish.

*Ikkinchi bosqich:*

sudgacha bo‘lgan bosqichda sud nazoratini kuchaytirish va oqilona muddatlarni belgilash, uzaytirish yoki qisqartirish masalalarini hal qilishda sudning (tergov sudyasining) rolini oshirish;

protsess ishtirokchilariga sudgacha bo‘lgan bosqichda oqilona muddatlarning buzilishi yuzasidan sudga shikoyat qilish huquqini berish;

sudlar tomonidan ishning oqilona muddatlarda ko‘rib chiqilganligi yoki oqilona muddat talablari buzilganligi holatlarini aniqlash va tegishli choralar ko‘rish mexanizmini yaratish.

*Uchinchi bosqich:*

nafaqat sudgacha bo‘lgan bosqichda, balki sudda ishlarni ko‘rib chiqishda ham oqilona muddatlarga rioya etilishini ta‘minlovchi qonun normalarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish;

ishni oqilona muddatda tamomlagan surishtiruvchi va tergovchilarni rag‘batlantiruvchi normalarni kiritish;

ish oqilona muddatda ko‘rilmaganligi natijasida protsess ishtirokchilariga yetkazilgan zararni qoplash (kompensatsiya to‘lash) tartibini belgilash.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.31/30.12. 2019.Yu.25.02 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ  
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ АКАДЕМИИ МИНИСТЕРСТВА  
ВНУТРЕННИХ ДЕЛ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН  
МИНИСТЕРСТВО ВНУТРЕННИХ ДЕЛ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН  
АКАДЕМИЯ**

**УСМАНАЛИЕВ НАДЖМИДДИН КОШБАК УГЛЫ**

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ПРОЦЕССУАЛЬНЫХ СРОКОВ НА СТАДИИ  
ДОСУДЕБНОГО ПРОИЗВОДСТВА**

**12.00.09 – Уголовный процесс. Криминалистика,  
оперативно-розыскное право и судебная экспертиза**

**АВТОРЕФЕРАТ  
диссертация доктора философии (PhD) по юридическим наукам**

**Ташкент – 2025**

**Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за номером B2023.3.PhD/Yu1194.**

Диссертация выполнена в Университете общественной безопасности Республики Узбекистан.

Автореферат диссертации размещен на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) на веб-сайте Научного совета ([www.mgju.uz](http://www.mgju.uz)) и на информационно-образовательном портале “Ziyonet” ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)).

**Научный руководитель:** **Муродов Бахтияржон Баходирович**  
доктор юридических наук, профессор

**Официальные оппоненты:** **Ражабова Мавжуда Абдуллаевна**  
доктор юридических наук, профессор

**Ботаев Мурод Джуманшикович**  
доктор философии по юридическим наукам, доцент

**Ведущая организация:** **Институт повышения квалификации Министерства внутренних дел Республики Узбекистан**

Защита диссертации состоится 14 ноября 2025 года в 14:30 на заседании Научного совета DSc.31/30.12.2019.Yu.25.02 по присуждению ученых степеней при Академии Министерства внутренних дел Республики Узбекистан. (Адрес: 100197, г. Ташкент, улица Интизор, 68. Тел./факс: (+99871) 265-22-52; e-mail: [info@akad.mvd.uz](mailto:info@akad.mvd.uz)).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Академии Министерства внутренних дел Республики Узбекистан (зарегистрирована за № АД 1464). Адрес: 100197, г.Ташкент, улица Интизор, 68. Тел.: (+998971) 265-22-52.

Автореферат диссертации разослан 1 ноября 2025 года.

(Регистрационный протокол № 29 от 1 ноября 2025 года.).

**А.С. Турсунов**

Председатель Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор юридических наук, профессор

**А.Д. Хусанов**

Ученый секретарь Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор философии по юридическим наукам, доцент

**Ш.А. Кулматов**

Председатель Научного семинара при научном совете по присуждению ученых степеней, доктор юридических наук, профессор

## **ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))**

**Актуальность и необходимость темы диссертации.** В мире обеспечение законности и правопорядка, эффективная защита прав, свобод и законных интересов граждан является одной из основных целей всех демократических правовых государств. В этой связи особую важность приобретают оптимизация института процессуальных сроков, поэтапная цифровизация порядка производства по уголовным делам и обеспечение их рассмотрения в разумные сроки в целях повышения эффективности системы правосудия, сокращения процессуальных издержек и создания дополнительных удобств для участников процесса. Согласно анализу имеющихся статистических данных, в странах с высокими показателями преступности срок расследования уголовных дел в среднем составляет 6-7 месяцев, а судебное разбирательство — 8-9 месяцев<sup>5</sup>. Несвоевременное рассмотрение уголовных дел приводит к необоснованному применению мер пресечения, связанных с лишением свободы, в отношении лиц, не признанных виновными приговором суда, утрате имеющихся доказательств, изменению показаний, данных участниками процесса, замешательству свидетелей, потерпевших и других участников процесса и снижению их доверия к справедливому правосудию, и, что самое важное, препятствует вынесению законного, обоснованного и справедливого решения по уголовному делу.

В мире проводится ряд исследований по оптимизации института уголовно-процессуальных сроков. В частности, актуальным объектом научных исследований стало отсутствие в теории уголовно-процессуального права единой концепции в разработке критериев классификации процессуальных сроков и применении теории «разумного срока», наличие коллизионных ситуаций между процессуальными сроками, а также существование правовых пробелов в отдельных процессуальных правоотношениях. Кроме того, возможность неограниченного продления сроков расследования уголовных дел, недостаточный учет в законодательстве таких факторов, как объем работы следственных органов и степень сложности преступления, обуславливают необходимость уделения особого внимания приведению национального законодательства в соответствие с международными стандартами.

Согласно стратегии «Узбекистан — 2030», в рамках обеспечения верховенства закона и реформ судебно-правовой системы требуется направить деятельность правоохранительных органов на защиту интересов, достоинства и прав человека<sup>6</sup>, наладить электронный документооборот по всем материалам проверок в порядке досудебного производства и уголовным делам, находящимся в производстве, оперативно рассматривать обращения граждан, увеличить как минимум в два раза возможности дистанционного осуществления отдельных процессуальных действий в деятельности судов и следственных органов, полностью цифровизовать деятельность по собиранию и закреплению доказательств путем внедрения современных технологий и новейших научных достижений, а также обеспечить направление уголовных дел в суд в короткие

<sup>5</sup> [www.unodc.org/unodc/en/data-and-analysis/statistics.html](http://www.unodc.org/unodc/en/data-and-analysis/statistics.html) (дата обращения 25.12.2024).

<sup>6</sup> Указ Президента Республики Узбекистан от 11 сентября 2023 года № ПФ-158 «О стратегии "Узбекистан — 2030"». - URL: <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>.

сроки и оптимизировать уголовно-процессуальные сроки и совершенствовать нормы законодательства.

В частности, увеличение за последние годы количества заявлений, сообщений и иных сведений о преступлениях почти в 2,3 раза привело к резкому возрастанию нагрузки на должностных лиц, ответственных за производство по уголовному делу, снижению эффективности их деятельности, затягиванию сроков проверки в порядке досудебного производства и предварительного следствия и, что самое важное, препятствует своевременному обеспечению конституционного права граждан на оперативное и справедливое правосудие. Это обуславливает необходимость проведения научно-исследовательской работы по данной теме в целях оптимизации критериев исчисления процессуальных сроков и эффективного использования возможностей современных информационных технологий в обеспечении соблюдения этих сроков, установления конкретных сроков рассмотрения ходатайств на стадии досудебного производства по делу, совершенствования оснований и процессуального порядка продления сроков проверки в порядке досудебного производства и предварительного следствия, а также установления конкретных сроков рассмотрения дел по определениям, вынесенным судами по обстоятельствам, указывающим на наличие нового обвинения в отношении лица либо совершение преступления лицом, не привлеченным к ответственности.

